Bolalar adabiyoti bolalar yoshiga mos, sodda, obrazli, tarbiyaviy ahamiyatga ega badiiy asarlar majmuasidir.

Bolalar adabiyotining asosiy turlari					
Ertaklar	Hikoyalar	She'rlar	Masallar	Topishmoqlar	Rivoyatlar

Bu janrlarning barchasi bolada axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ertaklar bolalar ongiga eng tez va chuqur ta'sir etuvchi adabiy janr hisoblanadi. Ertak janrini boshqa janrlardan ajratib turadigan bir qancha xususiyatlar mavjud bo'lib, yaxshilik doimo g'alaba qozonishi, yomonlik jazosiz qolmasligi, mehnatsevarlik, sabr-toqat, rostgo'ylik kabi hislatlar doimo ulug'lanishi shular jumlasidandir. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Bo'ri va echki bolalari", "Halollik" kabi ertaklar bolalarda axloqiy tushunchalarni shakllantiradi.

Hikoyalar real hayotga yaqin bo'lib, bolada kundalik axloqiy xulqni shakllantiradi. She'rlar esa ritm va ohang orqali tarbiyaviy g'oyalarni oson yodda qoldirishga yordam beradi.

Hikoya tuzishda tarbiyachi, asarni to'g'ri tanlashi, ifodali o'qib berishi, muhokama tashkil etishi, bolalarni mustaqil fikrlashga undashi bilan bir qatorda, tarbiyachining shaxsiy namunasi ham muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiyani shakillantirishda suhbat savol-javob rolli o'yinlar dramatizatsiya rasm chizish kabi metodlar bolalarda axloqiy xulqni mustahkamlaydi. Oila va ta'lim hamkorligi eng ustuvor pog'ona hisoblanib, bularga uyda ertak o'qish hamda bolaga ijobiy muhit yaratish muhimdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Bularga ertak, hikoya va she'rlar orqali bolalarda insoniy fazilatlar, ijtimoiy xulq-atvor, milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivojlanadi. Axloqiy tarbiyani shakllantirishda tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi muhim hisoblanadi va axloqiy tarbiyani shakillantirishda muhim vosita hisoblanadi va jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Axloqiy tarbiyani shakllantirishda bolalar adabiyoti maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasni shakllantirishda eng samarali vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyotlar orqali bolalarga ertak, she'r, hikoya va rivoyatlar orqali bolalar yaxshilik va yomonlikni ajratishni, mehr-oqibat, halollik, do'stlik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarni ongli ravishda idrok etishni o'rganadilar. Badiiy obrazlar va qahramonlar xatti-harakati bolaning hissiy dunyosiga bevosita ta'sir etib, axloqiy me'yorlarni hayotiy misollar orqali tushunishga yordam beradi. Shu sababli bolalar adabiyotidan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning axloqiy kamolotini ta'minlash, ularni jamiyatda munosib shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). G.X.Ro'ziyeva. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish mazmuni. Journal of international scientific research. February, 2025.

(2). Sh.F.Daminova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda badiiy adabiyotining o'rni. Journal of science-innovative research. November, 2023.

(3). M.Q.Allayorova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni va vazifalari. Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti, muammo yechim va istiqbol. Andijon, 2025.

(4). D.B.Hamroyeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining ertak janridan foydalanish zaruriyati. Educational Research in Universal Sciences, 2023.

(5). D.Boqijonova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda axloqiy tarbiya. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences international scientific-online conference. 2025.

(6). U.X.Musayeva. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor. November, 2022.

Ro'zmetov Azizbek Tangirberganovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Sport o'yinlari" kafedrasi dotsenti)

ZAMONAVIY VOLEYBOLNING DOLZARB MASALALARI VA O'YIN TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING UMUMIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy voleybolning dolzarb muammolari va o'yin texnikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy manbalar va mutaxassislarning fikrlari tahlil qilingan. Tahlillar natijasida o'yinga kiritilgan to'pni qabul qilish va uzatish texnikasini takomillashtirish yechimlari bo'yicha xulosalar qilingan.*

Kalit so'zlar: *mashg'ulotlar jarayoni, texnik-taktik tayyorgarlik, to'p uzatishlar, to'p kiritish, xujumkor zarba, to'siq qo'yish, kombinatsion harakatlar, pedagogik kuzatuv, pedagogik tadqiqotlar.*

Рузметов Азизбек Тангирберганович (доцент кафедры «Спортивных игр», Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни)

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ВОЛЕЙБОЛА И ОБЩИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИГРОВОЙ ТЕХНИКИ

Аннотация. *В статье проанализированы актуальные проблемы современного волейбола, а также научно-методические источники и мнения специалистов по совершенствованию игровой техники. По результатам анализа сделаны выводы о путях совершенствования техники приёма и передачи мяча после ввода его в игру.*

Ключевые слова: *процесс тренировки, технико-тактическая подготовка, передачи, подачи, нападающие удары, блок, комбинационные действия, педагогический эксперимент, педагогические исследования.*

Ruzmetov Azizbek Tangirberganovich (Associate professor of the department of Sports Games, Urgench state university named after Abu Rayhan Beruni)

CURRENT ISSUES OF MODERN VOLLEYBALL AND GENERAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING GAME TECHNIQUE

Annotation. *The article analyzes current issues of modern volleyball, as well as scientific and methodological sources and expert opinions on improving playing technique. Based on the results of the analysis, conclusions are drawn regarding ways to improve the technique of receiving and passing the ball after it is put into play.*

Key words: *training process, technical and tactical preparation, passes, serves, attacking blows, block, combination actions, pedagogical experiment, and pedagogical research.*

Kirish. O'zbekistonda voleybol sport turini yanada ommalashtirish, yoshlar orasidan voleybol sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarni saralab olish tizimini yaxshilash, ushbu sport turi bo'yicha zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish hamda milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlash vazifalari belgilangan [1].

O'yinga kiritilgan to'pni qabul qilish, kiritilgan to'pni qabul qilishda o'yinchilarning uyushqoqligi va o'zaro harakatlari taktikasi muammosi hozirgacha dolzarb bo'lib kelmoqda. Ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar kam olib borilgan bo'lib, asosan, voleybolchilarning jismoniy tayyorgarlikdariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Vaholanki, o'yinga kiritilgan to'pning tezligi (tadqiqotlarga ko'ra, to'pning uchish darajasi davomiyligi 0,707-2,063s.ni tashkil etadi), ularning xilma-xilligi, aniqligi va kuchi keskin oshib borayotgan sharoitlarda bu muammoning axamiyati yanada ortadi.

Shu holat hozirgi paytda to'p kiritishni faol hujum harakatlari vositalaridan biri sifatida hisoblashga imkon beradi, asosiy to'p qabul qiluvchilarning harakatlari esa jamoa o'yinchilarni orasida alohida muhim axamiyatga ega. Undan tashqari zamonaviy voleybolningg o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu sakrab to'pni o'yinga kiritishdan foydalanishdir, bu, shubhasiz, to'pni qabul qiluvchi o'yinchilarga sezilarli darajada qiyinchilik tug'diradi. Sakrab to'p kiritishni bajarish juda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, shu bilan birga, zamonaviy o'yin qoidalariga ko'ra, to'pni o'yinga kiritish maydonning (9 m) istalgan joyni tanlashi va turli xil usulda to'p kiritishdan foydalanishi mumkin (to'p kiritish qoidasiga, asosan, maksimal kuch bilan, yarim tezlikda, turli xil aylantirishlar bilan). Oxirgi yillarda mahoratli jamolarni o'yinchilari tomonidan sakrab kuchli to'p kiritishni bajarishdan foydalanish salmog'i ortib borayotganligi kuzatilmoqda [2,3].

Birinchi uzatma (kiritilgan to'pni qabul qilish) o'yinning asosiy taktik vositalaridan biri hisobla-nadi. Jamoaning nafaqat himoyalanish, balki hujumkor harakatlar bilan faol himoya olib borish qobiliyati, birinchi navbatda, o'yinchilarning sekin uchib kelayotgan yoki kuchli tarzda o'yinga kiritilgan to'plarni qa-bul qilish va ayni paytda uni aniq uzatish ko'nikmasi bilan aniqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Y.N.Kleshchev, V.A.Tyurin, P.Furayev (1968) shuni e'tirof etishadiki, to'pni o'yinga kiritish hujumning asosiy texnik usullaridan biri hisoblanadi. Kiritilgan to'pni qabul qilishda taktik jihatdan to'g'ri harakat qilish uchun o'yinchi quyidagilarni bilishi kerak: har bir joylashuvda to'pni qabul qilishda o'zining joylashgan o'rni, har bir joylashuvda to'p o'yinga kiritilgandan so'ng uni qayerga yo'naltirish lozimligi. Biz bu fikrga qo'shilmay ilojimiz yo'q.

Voleybolchilarning taktik tayyorgarligidagi bu kamchilikni bartaraf etishi uchun Y.N.Kleshchev (1968) himoyachilarga ularning asosiy va qo'shimcha harakatlanish zonalarini aniqlab beruvchi "yozilmagan" qoidalarga amal qilishni taklif etadi. A.B.Furmanovнинг (1983) fikricha, voleybolchilar orasida o'z-

aro tushunishni yaxshilash uchun shu narsa zarurki turli xil vazifalarni bajaruvchi o'yinchilar ularning sheriklari u yoki bu vaziyatda qanday harakat qilishlarini oldindan bilishlari kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy voleybolda birinchi uzatmalarning maqsadli bajarish katta qiyinchilik tug'diradi. Ayniqsa, shu narsaga e'tibor qaratish zarurki, himoyalanayotgan o'yinchilar kiritilgan to'pni qabul qilishda har doim ham birinchi uzatmani yetarlicha aniq bajara olmaydilar. Buning natijasida hujumdagi taktik maqsadlar (o'ylanmalar) va kombinatsiyalar buziladi, hujum zarbasini esa yaxshi tashkil qilingan to'siq qo'yishga qarshi uzoq va hujum uchun noqulay uzatmalardan bajarishga to'g'ri keladi. Kiritilgan to'pni qabul qilishda ayrim voleybol murabbiylari va mutaxassislarida o'yinga kiritilgan to'pni qabul samaradorligini oshirish muammosining dolzarbligi kamayganligi yoki ikkinchi darajaga o'tib qolgandek tuyulmoqda.

Biroq biz tomonimizdan olib borilgan yuqori malakali sportchi qizlar musobaqa faoliyatini kuzatish natijalari ushbu nuqtayi nazarning asossizligini ko'rsatdi: 1990–2000-yillar davrida o'yinga kiritilgan to'pni qabul qilish samaradorligi 52,6%, 2010-yildan hozirgi vaqtgacha esa 54,2%ni tashkil qilgan. Bunda to'pni yuqoridan o'yinga kiritish bajarilganda uni qabul qilish 5,5% holatlarda amalga oshirilgan. Model tavsiyalarga binoan himoyalanayotgan o'yinchilar raqibini 70-80% to'p kiritishlarini qabul qilishlari kerak. Bunda "to'pni yetkazib berish" ko'rsatkichi bo'lib, jamoaning o'z texnik-taktik salohiyatini amalga oshirish imkoniyati hisoblanadi. Ayni paytda, hamma o'yinchi ham, hatto sport ustasi bo'lgan jamoalarda, ushbu tavsiyalarga mos kelmaydi.

Umuman himoyada, xususan, kiritilgan to'pni qabul qilishda o'yin natijadorligini oshirish uchun so'nggi yillarda shunday yangilik kiritildiki, bu libero himoyachining jamoada mavjudligidir. Biz tomonimizdan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu aniqlandiki, libero faqat 22,7% hollarda kiritilgan to'pni qabul qilib oladi, ushbu o'yinchining to'pni qabul qilish samaradorligi 64,8% dan oshmaydi. Bu, bizningcha, shunga bog'liqki, boshqa ampluadagi o'yinchilar (birinchi sur'at, ikkinchi sur'at hujumchilari, bog'lovchilar) bilan taqqoslaganda, libero tayyorlash maktabi yetarlicha rivojlanmagan. Uning qisqa vaqt mavjudligida murabbiylar bu o'yinchilarni, dastlab o'ylanganidek, tegishli darajagacha tayyorlashga ulgurishmagan. Hozirgi paytda ayrim murabbiylar libero sifatida past bo'yli, shuningdek, boshqa ampluadagi ancha yuqori darajada tezlik qobiliyatlariga ega bo'lgan tajribali voleybolchilardan foydalanishmoqda.

Aksariyat mualliflar o'yinga kiritilgan to'pni qabul qilish natijadorligini oshirish muammosini hal qilishda o'yinchilarning raqib to'pni o'yinga kiritishdan oldin o'z vaqtida harakatlanish va to'g'ri dastlabki holatni egallash qobiliyatlariga, yaxshi to'pni qabul qilib olish uchun maydonda to'g'ri joy tanlashlari bilan bog'liq texnik-taktik harakatlarga muhim ahamiyat qaratishadi. Ma'lumki, joy tanlash individual taktik harakatlarga kiradi. Ular guruhli va jamoaviy taktik harakatlar asosi, "poydevori" hisoblanadi, chunki jamoa qanday taktik tizim qo'llamasin, u muayyan o'yinchilar tomonidan amalga oshiriladi va individual taktik qobiliyatlarga bog'liq. Shu sababli maydonda joy tanlashni individual taktik faoliyat vazifalarini hal etish vositasi sifatida qarayotib, guruhli va jamoaviy taktik xarakatlarni inobatga olish zarur. Undan tashqari, taktikaning bir tarkibini (joy tanlash) alohida, boshqalaridan bog'liq bo'lmagan holda tahlil qilish o'yin faoliyatida joy tanlashning ahamiyati to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi. Buning sababi shuki taktikaning hamma vositalari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq [2,3].

Shundan xulosa qilish mumkinki, o'yinchilar harakatlaridagi muvofiqlik, aniqlik, ularning maydonda maqsadga muvofiq joylashuvi bevosita joy tanlash bilan bog'liq. Shunday qilib, voleybolchilar maydonda shunday joy egallashlari kerakki, bu jamoa oldiga qo'yilgan taktik vazifalarni muvaffaqiyatli xal etishiga yordam berishi kerak.

Tahlil va natijalar. Maxsus o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlarda, afsuski, o'yinga kiritilgan to'pni qabul qilishni tashkil etishda joy tanlash muammosi hali yetarlicha to'liq ochib berilmagan. Shuningdek, o'yinga kiritilgan to'pni qabul qilishda maqsadga muvofiq va aniq joy tanlash uchun asos hisoblanadigan qonuniyatlar to'g'risida tasavvur hosil qiladigan muayyan tavsiyalar yo'q.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha mualliflar shuni e'irof etishadiki, kuchli to'p kiritishlar odatda maydon o'rtasiga yo'llanadi kuchsizroq, lekin aniq to'p kiritishlarni esa agar maydonda tez harakat qilinsa, qabul qilishga ulgurish mumkin. Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan darsliklarda ham shu ta'kidlanadiki, o'yinchilarning maydon o'rtasida to'planishi o'yinchilar joylashuvining umumiy tamoyillaridan biri hisoblanada, chunki o'yinga kiritilgan to'plarning katta qismi maydonning markaziga kelib tushadi. Biroq amaliyotda shunday vaziyatlar ham tez-tez uchrab turadiki, sportchilarning eng tez javob harakatlari kerakli harakatlanishlarni bajarish uchun yetarli bo'lmaydi, chunki kuchli to'p kiritishlarda to'pning uchish tezligi inson harakatlanishidan ko'p karra yuqoriroq bo'ladi. Musobaqa faoliyatini pedagogik kuza-tishlar yana shuni ko'rsatadiki, kuchli to'p kiritishlardan keyin to'pning uchish tezligi voleybolchilar-

ning qisqa masofalarda harakatlanish tezligidan yuqoriroq. Undan tashqari, mualliflar alohida o‘yinchi uchun joy tanlashni qanday amalga oshirish kerakligi, umuman, jamoa qanday joylashuvni qo‘llashi lozimligini ochib berishmagan [2,3,4].


Y.N.Kleshev (1995), shuni e’tirof etishadiki, to‘pni o‘yinga kiritish hujumning asosiy texnik usullaridan biri hisoblanadi. Kiritilgan to‘pni qabul qilishda taktik jihatdan to‘g‘ri harakat qilish uchun o‘yinchi quyidagilarni bilishi kerak: har bir joylashuvda to‘pni qabul qilishda o‘zining joylashgan o‘rni, har bir joylashuvda to‘p o‘yinga kiritilgandan so‘ng, uni qayerga yo‘naltirish lozimligi. Biz bu fikrga qo‘shilmay ilojimiz yo‘q.

Y.D.Jeleznyak (1991) e’tirof etadiki, o‘yinchilarning oqilona joylashuvi to‘pni qabul qilishda xatolarning kamayishiga va taktik o‘ylanmalarni yaxshiroq amalga oshirishga yordam beradi. Kiritilgan to‘pni qabul qilish uchun joy tanlash to‘g‘risida gapira turib, muallif shunga diqqat qaratadiki, o‘yinchilar qanday qilib dastlabki holatni yaxshiroq egallash kerak ekanligini bilishlari zarur. “Harakatlanish joyiga” o‘z vaqtida chiqa olish va to‘g‘ri dastlabki holatni egallash ko‘nikmasi, muallif fikricha, muntazam ravishda murabbiyning doimiy nazorati va ko‘rsatmalari orqali egallanadi.

Y.D.Jeleznyak, A.V.Ivoylov (1991) kuzatuvlariga ko‘ra, kuchli to‘p kiritishlarni qabul qilishda to‘rdan 3,5–5 m uzoqlikda joylashish maqsadga muvofiq. Mualliflarning fikricha, kiritilgan to‘pni qabul qilishdagi xatolarning asosiy sababi o‘yinchilarning noto‘g‘ri joylashuvi va to‘pni qabul qilishdagi noto‘g‘ri harakatlar hisoblanadi. Kiritilgan to‘pni qabul qilishda taktik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun har bir o‘yinchi o‘yinga kiritilgan to‘pni ancha qulay tarzda qabul qilish uchun to‘g‘ri joyni va to‘pni qabul qilish usulini to‘g‘ri tanlashi kerak.

Ko‘rib turganimizdek, Y.D.Jeleznyak ham, A.V.Ivoylov ham kiritilgan to‘pni qabul qilib olish uchun maydonda to‘g‘ri va o‘z vaqtida joy tanlash ahamiyatini alohida e’tirof etishadi. Biroq ularning ishlarida, afsuski voleybolchi to‘p o‘yinga kiritilayotgan paytda qayerda joylashishi kerak degan savolga aniq javob topmadik.

Jismoniy tarbiya olygohlari uchun mo‘ljallangan “Voleybol” darsligida o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish uchun joy tanlash muammosini o‘rganayotib, mualliflar o‘yinchi, birinchi navbatda, umumiy joylashish sxemasini inobatga olgan holda, eng qulay joyni egallashi ta’kidlanadi (1-rasm). Shuni aytish lozimki, kiritilgan to‘pni qabul qilish uchun joy tanlashda o‘zining shartli harakatlanish zonasini esdan chiqarmaslik kerak. Ushbu o‘quv qo‘llanmada har bir zona o‘yinchisi uchun qaysi joy eng qulay ekanligi, kiritilgan to‘pni qabul qilishda o‘z harakatlanish zonasini qanday aniqlash lozimligi tushintirib berilmagan [3,4].



1-rasm. Voleybol maydonida Y.N.Kleshev tomonidan taklif etiladigan joylashuvlar.

O‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilishda voleybolchilarning taktik harakatlari muvaffaqiyati reaksiya tezkorligi mo‘ljal olish va harakatlanish tezligi kiritilgan to‘pni pastdan ikki qo‘lda qabul qilish texnikasining mukammal egallanganlik darajasiga, shuningdek, alohida o‘yinchi uchun joy tanlash hamda dastlabki holatni egallash imkoniyatlariga bog‘liq. Raqib o‘yinchilari tomonidan bajariladigan to‘p kiritishlarning xususiyatlarini yaxshi o‘rganib chiqish zarur bo‘lib, maydonda joylashuvlar jamoaning taktik ko‘nikmalari va maydonda bog‘lovchi o‘yinchilarning qaysi zonadan chiqishi bilan bog‘liq holda har xil bo‘ladi [2,3, 4,5].

Yuqorida berilgan sxemalar bo‘yicha to‘p o‘yinga kiritilganda uni qabul qilishda voleybolchilarning maydondagi joylashuvlari to‘g‘risida faqat taxminan fikr yuritish mumkin, chunki sxemalarni ta’riflashda mualliflar har bir to‘pni qabul qilish zonasida o‘yinchilar joylashishining aniq koordinatalarini ko‘rsatib o‘tmaganlar. Biroq shuni ko‘rsatib o‘tish lozim edi, chunki mutaxassislar va murabbiylar, shuningdek, sportchilar orasida shu masala borasidan jiddiy ziddiyatlar mavjud.

Ba’zi mualliflarda kiritilayotgan to‘pni qabul qilishda o‘ynash chog‘ida voleybolchilarning joylashuviga doir alohida tavsiyalar uchraydi. Masalan, A.V.Ivoylov (1979) shunday fikrdaki, o‘yinchilar to‘rdan 3,5-5 m uzoqlikda bir chiziq bo‘lib joylashishlari maqsadga muvofiq. Y.D.Jeleznyak (1991) to‘p o‘yinga kiritilayotganda o‘yinchilarning to‘rdan 5–6 m uzoqlikda joylashishlari maqsadga muvofiq ekanligini e’tirof etishadi. Lekin bunda shunga o‘xshash noaniq tavsiyalar ham mavjud: “yaqinroq yoki uzoqroq siljishlar”, “o‘yinchilar orqaga chekinadilar” va h.k. Y.D.Jeleznyak tavsiyalaridan ham taxminiy xususiyatga ega: “to‘pdan biroz uzoqroq”. Y.N.Kleshevda ham shunday tavsiyalar uchraydi: ...“orqaga o‘tib olish va to‘pdan 7–8 m masofada joy egallash”. Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflarda biz to‘pni qabul qilayotgan o‘yinchilar uchun to‘rdan aniq bir masofada turish to‘g‘risida tavsiyalarni ko‘ramiz. Biroq qo‘llanmalarning hech birida yon chiziqlardan qancha masofada uzoqlikda turish ko‘rsatib o‘tilmagan.

Xulosa va takliflar. E’tirof etish joizki, maxsus adabiyotlarda biz o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilishni bajaradigan o‘yinchilar soniga tegishli ma’lumotlar yuzasidan turli xil mualliflarning fikr-mulohazalarida farq borligini ko‘rmadik. A.V.Ivoylov (1979) shunday joylashuvni taklif qiladiki, bunda barcha oltita o‘yinchi uch metrli chiziq ortida turishadi. Y.D.Jeleznyak (1991) quyidagi joylashuvlarni qarab chiqamiz: 1) oltita o‘yinchi uch metrli chiziq ortida; 2) xuddi shunday, lekin 6-zona o‘yinchisi orqa chiziqdan 1,5 m narida turadi. Bunda ushbu qo‘llanmada o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilishni takomillashtirish uchun mashqlar keltirilgan. Besh kishi to‘pni qabul qilishda va bitta holatda to‘rt kishi to‘p qabul qilishda ishtirok etadi. M.E.Amalin (1976) shunday fikr bildiradiki, to‘pni qabul qilishda besh yoki olti o‘yinchi ishtirok etishi kerak. Y.D.Jeleznyak (1991) besh va to‘rt himoyachi uchun joylashuvni taklif etadi, shuningdek, faqat bir holatdagina uch kishi uchun himoyaviy joylashuvni taklif qiladi.

Tahlil qilingan maxsus ilmiy, o‘quv-metodik adabiyotlar hamda yuqori malakali voleybolchi qizlar musobaqa faoliyatini pedagogik kuzatish natijalari shuni ko‘rsatadiki, voleybolda o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish samaradorligini oshirish muammosi hozirgi zamon voleyboli uchun o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Aksincha, to‘p kiritishning tezligi, kuchi, aniqligi va xilma-xilligining ortib borishi, shuningdek sakrab kuchli to‘p kiritishlarning keng qo‘llanilishi mazkur muammoning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–274-qarori. http://lex.uz

(2). Ивойлов А.В. Тактическая подготовка волейболистов. М., “Физкультура и спорт”, 1979, 112 с.

(3). Железняк Ю.Д., Ивойлов А.В. Волейбол. Учебник для институтов физической культуры, М., “Физкультура и спорт”, 1991, 239 с.

(4). Клещев Ю.Н., Л.Р.Айрапетьянц, В.Л.Паткин. Волейбол. Книга тренера. Часть первая. Ташкент, 1995, 188 с.

(5). Айрапетьянц Л.Р. Развитие и положительное использование научного и технического потенциала. “Фан–спортга”, Ташкент, 2004, №1, с. 17–20.

(6). Амалин М.Е. Тактика волейбола. М., “ФиС”, 1976, с. 46.

Abdunazarov Lutfillo Mamanovich (Qo‘qon universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); l.m.abdunazarov.kokanduni.uz)

URBANIZATSION TARAQQIYOTDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonining ekologik oqibatlari va bu sharoitda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Urbanizatsiya aholining shaharlarga ko‘chishi, infratuzilmaning kengayishi va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishi bilan birga, havo va suv ifloslanishi, yer degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik tahdidlarni yuzaga keltiradi. Maqolada ekologik madaniyat insonning tabiat bilan hamjihatligi, resurslardan oqilona foydalanishi va ekologik mas’uliyati sifatida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *urbanizatsiya, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, borliq, infratuzilma, migratsiya, havo ifloslanishi, yer degradatsiyasi, biologik xilma-xillik, “aqlli shahar”, innovatsiya, yashil zonalar, ekologik ta’lim, Yangi O‘zbekiston.*